



EFFICIENCY OF THE COLLECTED PENSION SYSTEM

Teshaboev Jamshidbek Qudratillaevich¹

¹ Deputy Head of the Extra-budgetary Pension Fund under the Ministry of Finance, Ulugnor district, Andijan region
<https://doi.org/10.5281/zenodo.4720492>

ARTICLE INFO

Received: 23rd April 2021
Accepted: 25th April 2021
Online: 27th April 2021

KEY WORDS

Pensions, pension benefits, cash, government subsidies, pension funds

ABSTRACT

This article discusses and analyzes pensions, improving the pension system of the Republic of Uzbekistan, reforms in the financing of the pension system and similar issues.

JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI SAMARADORLIGI

Teshaboev Jamshidbek Qudratillaevich¹

¹ Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon viloyati Ulug'nor tuman bo'lim boshliq o'rinbosari
Email: teshaboevj@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 23-aprel 2021
Ma'qullandi: 25-aprel 2021
Chop etildi: 27-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Pensiya, pensiya ta'minoti, pul mablag'lari, davlat subvensiyalari, pensiya fondlari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pensiya, O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlar va shu kabi masalalar ko'rib chiqildi va tahlil etildi.

O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va uni isloh qilish, butunlay yangicha insonlar manfaatlariga xizmat qiladigan ko'p bosqichli pensiya tizimini joriy etish kabi masalalar mamlakatimiz pensiya tizimini takomillashtirishning strategik maqsadlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Chunki, aholining kuchli ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun kuchli moliyaviy manbaga asoslangan

pensiya ta'minoti institutini shakllantirish lozim. Zero, ijtimoiy siyosatning ahamiyati shundaki, mamlakatdagi mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki ba'zi sabablarga ko'ra ishlab daromad topish imkoniyatiga ega bo'lmagan qatlamlarini ijtimoiy himoya tizimi orqali qamrab olinadi.

“Pensiya” - bu fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga yetganida, nogironlik tufayli mehnat



faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan har oylik to'lovlar hisoblanadi". Pensiya ta'minoti esa ushbu to'lovlarni maxsus Pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqarolarga to'lanishining ta'minlanishidir. Ya'ni pensiya aholini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosi hisoblanadi. Pensiya ta'minoti tizimi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo'ljallangan, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab organizmdir. "Pensiya" atamasi XIX asrning ikkinchi yarmidan paydo bo'ldi. Bunga sabab ilm-fan, sanoatning rivojlanishi hamda yollanma ishchilar sinfining rivojlanishi bo'ldi.

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi Qonunning maqsadi: fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munasabatlarini tartibga solishdan iborat. Davlatning nazorati ostida ish beruvchilar va ishlovchilarning shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalardan pensiyalarni moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir.

"Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti- fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'laridan davlat pensiyasiga qo'shimcha pul mablag'lari bilan ta'minlashdir.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, ularni Respublikamizda boshqa islohotlar bilan jumladan, mehnat bozoridagi, soliq tizimidagi, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishda milliy

urf-odatlarimiz, oilalarga, qariyalarga yordam e'tiborga olinishi kerak. Mazkur tizimning mamlakatimizda qo'llanilishi jarayonida quyidagilarni amal qilish ko'zda tutilgan:

- jamg'arib boriladigan pensiya'ning umumiy va majburiy xarakteri, ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirishdagi imtiyozlar kishining ijtimoiy himoyalanih huquqining ta'minlanishi;

- jamg'arib boriladigan pensiya majburiy va ixtiyoriy shakllarning birligi teng huquqliligi shaxsning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan zaruriy darajasi ta'minlanadi va uning keksalik chog'ida yaxshi yashashi uchun ta'sir ko'rsatishi;

- turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o'zida amal qilishidagi mustaqilligi va o'zini-o'zi idora qilish sharoitida majburiy jamg'arib boriladigan pensiya bo'yicha to'lovlar darajasi va tizimni barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxs va ish beruvchini moliyaviy ishtirokining majburiyiligi, zaruriy holatlarda davlat subvensiyalarining jalb etilishi.

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsga uning jamg'argan badallari to'lashidagi moliyaviy ishtiroki tufayli hosil bo'lgan mablag'dan turli shakldagi moddiy yordam va xizmatlar ko'rsatishi ta'minlanishi;

- aholining tegishli ijtimoiy kategoriyalarni qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakatning barcha aholisining u yoki bu pensiya ta'minot turidan manfaatdorligi;

- barcha jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxslarning xarajatlarini moliyalashtirish bo'yicha majburiyat va natijada ega bo'lingan huquq



va kafolatlar nuqtai nazaridan tengligini ta'minlanishi.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari miqdori jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazilgan mablag'lar summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarining eng kam yoki eng ko'p miqdorini belgilash nazarda tutilmaydi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan barcha mablag'larni bir yo'la olishda to'lovlar jamg'arilgan pensiya to'lovlarini olish vaqtida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazilgan mablag'lar doirasida to'liq hajmda amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari bo'lib-bo'lib olingan taqdirda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazilgan jamg'arilgan summa jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi ushbu to'lovlarni olishni ho'xlaydigan oylar soniga bo'linadi. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini amalga oshirish davri va davriyligi jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi tomonidan belgilanadi va cheklanmaydi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti sohasidagi o'zgartirishlar natijasida tizimni mukammallashtirish zarur: imtiyozli pensiyalar va belgilangan muddat xizmat qilgani uchun tayinlanadigan pensiyalar bo'yicha pensiya ta'minoti tizimini tartibga solish; belgilangan muddatdan ilgari pensiyaga chiqish tartibini bekor qilish; ijtimoiy to'lovlar doirasini kengaytirish; majburiy ijtimoiy sug'urta to'lovlarni hisob-kitob qilish bazasini ko'paytirish; yakka tartibda shaxsiy hisobga olish tizimini rivojlantirish. Rivojlangan mamlakatlarda nodavlat pensiya fondlari taraqqiy etib bormoqda. Nodavlat pensiya jamg'armalari tabiatiga ko'ra ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, bu jamg'armalar jamiyatdagi mehnatga layoqatsiz bo'lgan a'zolarining moddiy holatini yaxshilash vazifasini hal qilish maqsadini ko'zlaydigan muhim ijtimoiy institut deb hisoblanadilar. Ular yordamida odamlar keksalik davrida davlat tomonidan kafolatlangan eng kam miqdordan yuqoriroq daromad olish imkonini qo'lga kiritadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 2004 yil. 2 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2010 yil 26 noyabr
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonuni. 2004 yil. 2 dekabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi 2- fevraldagi "Ish haqqi, pensiyalar, stipendiyalar, va nafaqalar to'lash mexanizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-2753-sonli Qarori